

BOLALARGA QARSHI KIBERZO'RAVONLIK JINOYATLARINI ANIQLASH VA TERGOV QILISHDA RAQAMLI DALILLAR BILAN ISHLASHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY MUAMMOLARI

Davletov Jasurbek Baxtiyarovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi tergov faoliyati yo'nalishi magistri

Zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli muhitning jadal rivojlanishi bolalar hayotida tubdan o'zgarishlar yaratmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil qurilmalarning keng tarqalishi bolalar uchun ta'lim olish, muloqot qilish va o'z ijodiy salohiyatlarini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, ayni paytda ularga qarshi yo'naltirilgan yangi turdagi jinoyatlar, xususan, kiberzo'ravonlik xavflarini ham sezilarli darajada oshirdi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'yicha 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yoshlarning taxminan 77 foizi internetdan muntazam foydalangan bo'lib, bu ko'rsatkich har yili o'sib bormoqda¹. Shunday sharoitda bolalarga qarshi kiberzo'ravonlik jinoyatlari – kiberbulling, onlayn tahqirlash, jinsiy ekspluatatsiya, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy tarqatish va boshqa raqamli muhitdagi zo'ravonlik shakllari – jahon hamjamiyati uchun jiddiy muammoga aylangan.

Mazkur jinoyatlarni samarali aniqlash va tergov qilishda raqamli dalillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Raqamli dalillar – bu kompyuter tizimlari, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa elektron vositalar orqali yaratiladigan, saqlanadigan yoki uzatiladigan va jinoyat ishiga aloqador bo'lgan har qanday elektron ma'lumotlardir². Biroq, raqamli dalillarning o'ziga xos xususiyatlari – ularning o'zgaruvchanligi, ko'chirilish imkoniyati, oson yo'q qilinishi va transchegaraviylik xarakteri – an'anaviy dalil to'plash usullaridan tubdan farq qiluvchi protsessual yondashuvlarni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham bolalarni himoya qilish yo'nalishida muhim qonunchilik islohotlari amalga oshirilmoqda. Xususan, 2024-yilda "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, unda kiberbulling ham zo'ravonlikning alohida shakli sifatida tan olingan. Biroq, mazkur sohadagi protsessual-huquqiy tartibga solishda hali ham bir qator bo'shliqlar va amaliy muammolar mavjud bo'lib, ular ilmiy tadqiqot va tahlil talab etadi. Bu muammolar nafaqat O'zbekiston, balki ko'plab rivojlanayotgan davlatlar uchun ham dolzarb hisoblanadi, chunki raqamli jinoyatchilik global xarakterga ega va barcha davlatlardan muvofiq huquqiy javob choralari talab etadi.

Raqamli dalillar tushunchasi zamonaviy jinoyat protsessi fanida nisbatan yangi tushunchadir. An'anaviy dalillar nazariyasida dalillar jismoniy ashyolar, hujjatlar va shaxslar ko'rsatmalari kabi shakllarda tasniflangan bo'lsa, raqamli muhitda yaratiladigan dalillar o'zining mohiyati va xususiyatlari jihatidan alohida tartibga solishni talab etadi. Raqamli dalillar o'z tabiatiga ko'ra o'zgaruvchan, ko'chirilishi mumkin va osongina modifikatsiya qilinishi yoki yo'q qilinishi mumkin bo'lib, bu ularning ishonchliligini ta'minlash uchun maxsus protsessual mexanizmlarni talab qiladi. Bundan tashqari, raqamli dalillar ko'pincha katta hajmdagi ma'lumotlar orasidan tanlab olinishi kerak bo'lib, bu "raqamli iz" (digital footprint) tushunchasi bilan chambarchas bog'liq.

Bolalarga qarshi kiberzo'ravonlik jinoyatlarida raqamli dalillarning roli ayniqsa muhimdir, chunki bunday jinoyatlar to'liq yoki asosan raqamli muhitda sodir etiladi. Kiberbulling holatlarida ijtimoiy

¹ UNICEF. Childhood in a Digital World. Florence: UNICEF Office of Research — Innocenti, 2024.

² Maras, Marie-Helen. "Digital Evidence." UNODC Cybercrime Module 4: Key Issues. Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime, 2019. Available at: <https://www.unodc.org/cld/en/education/tertiary/cybercrime/module-4/key-issues/digital-evidence.html>.

tarmoqlardagi xabarlar, rasmlar, videolar va boshqa kontentlar, onlayn jinsiy ekspluatatsiya ishlarida chat yozishmalari, tasvirlar, metadata ma'lumotlari, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy tarqatish jinoyatlarida esa server jurnallari, IP-manzillar va foydalanuvchi profillari raqamli dalillar sifatida ahamiyat kasb etadi³. Raqamli dalillar nafaqat jinoyat faktini tasdiqlash, balki jinoyatchi shaxsini aniqlash, jinoyat sodir etilgan vaqt va joyni belgilash hamda jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni baholashda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Raqamli dalillarni yig'ish jarayoni an'anaviy dalil to'plash tartiblaridan tubdan farq qiladi va bir qator murakkab protsessual muammolarni keltirib chiqaradi. Birinchi va eng muhim muammo – raqamli dalillarning o'zgaruvchanligi va yo'qolish xavfidir. Tergov harakatlari boshlanishidan oldin yoki jarayonida elektron ma'lumotlar o'zgartirilishi, o'chirilishi yoki qayta yozilishi mumkin. Ya'na bir muammolarda biri raqamli dalillarning butunligini ta'minlash, ya'ni dalillarning yig'ilgan paytdagi holatini o'zgartirilmasdan saqlash zarurati sanaladi. Xalqaro amaliyotda bu masala "dalillar zanjiri" (chain of custody) tushunchasi orqali tartibga solinadi va har bir bosqichda dalillar bilan kim, qachon va qanday muomala qilganligi batafsil hujjatlashtirilishi talab etiladi⁴. Hujjatlashtirish dalillarning qachon va qayerdan yig'ilganligi, qurilmaning turi va egasi, dalillarni yig'ishda qanday vositalar va protseduralar qo'llanilganligi, dalillar qanday saqlanganligi va kim tomonidan ko'rib chiqilganligini o'z ichiga olishi kerak.

Raqamli dalillarning sud jarayonida qabul qilinishi zamonaviy jinoyat protsessining eng muhim masalalaridan biridir. Turli huquqiy tizimlarda raqamli dalillarning qabul qilinishi uchun turli mezonlar belgilangan bo'lib, ularning barchasi ikkita asosiy talabga – haqiqiylik va ishonchlilik talablariga asoslanadi⁵. Haqiqiylik dalilning asl manbaidan kelib chiqqanligini va o'zgartirilmaganligini, ishonchlilik esa dalil to'plash va saqlash jarayonida standart protseduralar bajarilganligini anglatadi.

O'zbekiston qonunchiligida raqamli dalillarning qabul qilinishiga oid yangi tartib bir nechta muhim qoidalarni belgilaydi. Birinchidan, raqamli dalillarning nusxalari faqat asl nusxalar mavjud bo'lgan holatda qabul qilinishi mumkin. Ikkinchidan, huquqiy jarayonlar ishtirokchilari raqamli dalillarni qog'oz shaklida taqdim etishlari mumkin, ammo bunday nusxalar yozma dalil sifatida hisoblanmaydi. Uchinchidan, ishga aloqador bo'lmagan elektron axborot tashuvchilari tezlik bilan qonuniy egalariga qaytarilishi kerak. Ushbu qoidalar raqamli dalillarning butunligini ta'minlash uchun muhim bo'lsa-da, amaliyotda bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, asl raqamli qurilma yo'q qilingan yoki foydalanib bo'lmaydigan holatlarda qabul qilinish masalasi qonunchilikda yetarli darajada aniq belgilanmagan. Shuningdek, bulutli xotiralarda saqlangan ma'lumotlar uchun "asl nusxa" tushunchasini aniqlash alohida muammoni tashkil etadi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, ko'plab davlatlar raqamli dalillarning qabul qilinishi uchun maxsus standartlar ishlab chiqqan. AQShda Daubert standarti ilmiy dalillarning ishonchliligi uchun mezonlarni belgilagan bo'lib, bu mezonlar raqamli dalillarga ham tatbiq etiladi. Bartholomew ta'kidlaganidek, AQSh sudlari raqamli dalillarni ko'rib chiqishda qurilmalarni musodara qilish va keyinchalik ekspertiza o'tkazish o'rtasidagi vaqt masalasiga alohida e'tibor qaratadi, chunki kechikish dalillarning

³ Kasper, Einar, Mariana Laurits. "Admissibility of Digital Evidence in Criminal Proceedings." *Juridica International* 2016, vol. 24: 98-109.

⁴ Akinbi, Alexander. "Digital Forensics Investigation Jurisprudence: Issues of Admissibility of Digital Evidence." *Journal of Forensic Sciences and Criminal Investigation* 2024, vol. 18(1): 1-12.

⁵ Council of Europe. Second Additional Protocol to the Convention on Cybercrime on Enhanced Cooperation and Disclosure of Electronic Evidence. CETS No. 224. Strasbourg: Council of Europe, 2022.

ishonchliligiga ta'sir ko'rish mumkin⁶. Yevropa Ittifoqida esa Budapesht konvensiyasi davlatlarga raqamli dalillarni yig'ish va saqlash uchun yagona protsessual standartlarni joriy etishni tavsiya etadi. Bolalarga qarshi kiberzo'ravonlik jinoyatlarida raqamli dalillar bilan ishlashning protsessual-huquqiy asoslarini takomillashtirish uchun xalqaro standartlar va ilg'or tajribani chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Yevropa Kengashining Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Budapesht konvensiyasi kiberjinoyatlar sohasida xalqaro hamkorlikni tartibga soluvchi yagona majburiy xalqaro shartnoma hisoblanadi. Konvensiya davlatlardan raqamli dalillarni tezkor saqlash, yig'ish va o'zaro almashish uchun zarur protsessual vakolatlarni joriy etishni talab etadi, shuningdek, bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi materiallari bilan bog'liq jinoyatlarni kriminallashtirish majburiyatini ham belgilaydi. Yevropa Parlamenti tomonidan 2024-yilda chop etilgan tadqiqot hisobotida Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlarining kiberbullingga qarshi qonunchilik tajribasi batafsil tahlil qilingan⁷. Hisobot shuni ko'rsatadiki, Ruminiya, Finlandiya kabi ba'zi davlatlar kiberbullingni alohida jinoyat sifatida kvalifikatsiyaqilgan bo'lsa, boshqalari esa mavjud jinoyat qonunchiligining umumiy normalarini qo'llaydi.

Bolalarga qarshi kiberzo'ravonlik jinoyatlarini tergov qilishda raqamli dalillar bilan ishlashning bir qator amaliy muammolari mavjud bo'lib, ular protsessual-huquqiy tartibga solishni takomillashtirishni talab etadi. Avvalamvor, shifrlangan ma'lumotlarni ochish masalasidir. Zamonaviy kommunikatsiya platformalari ko'pincha end-to-end shifrlash texnologiyasidan foydalanadi va bu texnologiya jinoyatchilar aloqalarini tergov organlaridan yashirish imkonini beradi. Ammo bola huquqlarini himoya qilish zarurati va fuqarolarning shaxsiy hayot sir tutilishi huquqi o'rtasidagi muvozanat saqlash ham muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, raqamli dalillar bilan ishlashning protsessual-huquqiy muammolarini hal etish nafaqat qonunchilik islohotlarini, balki instituttsional imkoniyatlarni kuchaytirish, texnik infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashni talab etadi. O'zbekiston bu yo'nalishda muhim qadamlar qo'ygan bo'lib, boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish bolalarni raqamli muhitdagi zo'ravonlikdan samarali himoya qilish tizimini shakllantirish uchun mustahkam asos bo'ladi.

⁶ Bartholomew, Paul. "Seize First, Search Later: The Hunt for Digital Evidence." *Touro Law Review* 2014, vol. 30(4): 1027–1070.

⁷ European Parliament. "Cyberbullying among Young People: Laws and Policies in Selected Member States." EPRS Briefing. Brussels: European Parliamentary Research Service, 2024.